

UDK 514.40

**OLIY TA`LIMDA TALABALARNI MUSTAQIL TA`LIMINI TASHKIL ETISHNING
AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI.****Rustamov Erkin Toxirovich***TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti**Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti**“Muhandislik va raqamli texnologiyalar” kafedrasida asistenti.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta`limda, mustaqil ta`limning o`rni va ahamiyati, mustaqil ta`limni tashkil etish jarayonidagi dolzarb masalalar haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar: *Tashkiliy, psixologik-pedagogik, o`quv-uslubiy, axborot, moddiy-texnik.*

O`zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini ta`lim tizimiga tadbiiq etishdan asosiy maqsad Barkamol avlodni komil inson darajasida tarbiyalash bilim berish hamda jamiyatda o`z o`rnini topish bilan asoslanadi. Ta`lim tizimining barcha yo`nalishlarida amalga oshirilayotgan o`zgarishlar, o`sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, unga ta`lim berish jarayonini sifat jihatdan takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Buning uchun mustaqil ta`limni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish va shu orqali o`quvchilarning mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Tayyorlanayotgan kadrlarning bu sifatlarini rivojlantirish ta`lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Mustaqil ta`limni nazariy va amaliy jihatdan tashkil etish chuqur bilim hamda yuksak mahoratni talab etadi. Agar o`quvchilarni o`quv materiallaridan muhimini ajratib olish, dalillarni to`g`ri baholash, tahlil qilish hamda amaliyotda qo`llay olishga o`rgatsak, shundagina mustaqil ta`lim natijasi samarali bo`ladi.

Mustaqil ta`lim bilish, tafakkur etish jarayonlarini o`zida mujassamlashtirib, texnika, texnologiyalarning yangilanib borishida shaxsni hayotga va mehnat qilishga tayyorlashning yo`llaridan biri hisoblanadi. Mustaqil ta`lim – darsni qayta takrorlash bo`lib qolmasligi kerak.

Mustaqil ta`limni bajarishda o`quvchi o`z faoliyatini o`zi rejalashtiradi, nazorat qiladi, kerakli vaqtni sarflab, mustaqil ta`lim natijalarini bir necha marta takroran amaliyotda sinab ko`rishi mumkin.

Mustaqil ta`limni bajarish o`qituvchi tomonidan olib borilmaydi, lekin, bu faoliyatni boshqarishda uning ijobiy ta`siri yuqori bo`ladi. O`qituvchi mustaqil ta`limni tashkil etishda asosiy e`tiborini o`quvchilar duch keladigan qiyinchilik va ularni bartaraf etish yo`llarini aniqlashga qaratishi lozim.

Uyga vazifalarni bajarish, qo`shimcha darslik va adabiyotlarni o`qish, ularni tahlil qilish, referat, kurs, bitiruv-malakaviy ishlarni yozish, kuzatish va tadqiqot ishlarini

amaliyotda sinab ko'rish, to'garak, turli xil kechalar, seminar hamda konferentsiyalarda ma'ruzalar bilan ishtirok etish kabilar darsda olingan bilimlarni chuqur o'zlashtirishga undaydi, mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatni rivojlantiradi. SHuning uchun ham mus-taqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Mustaqil ishning maqsad va vazifalari

Mustaqil ishning maqsadi – 1.bo'lg'usi mutaxassislarda yangi bilimlarni qidirish uchun axborotlardan foydalanish, uning asosida esa yangi axborotlarni yaratish ehtiyoji va qobiliyatini rivojlantirish.

2. O'quv rejalariga kiritilgan mustaqil ishning asosiy vazifasi – davlat ta'lim standarti va dasturlari belgilagan bilim, maxorat va ko'nikmalarni shakllantirishdir.

Maqsadga erishish uchun oliy ta'limning asosiy vazifasi quyidagilardir:

1. Ta'lim oluvchilarda ehtiyoj va uddalay olishni shakllantirish;
2. «Axborot → bilim → yangi axborot» tizimida shaxsiy bilish (tafakkur etish) faoliyatini boshqarish;
3. Mustaqil tarzda kerakli axborotlarni yig'ish;
4. Muammoni aniqlash va uning ratsional echim yo'llarini qidirish;
5. Olingan bilim, ko'nikma, malakalarni tanqidiy tahlil etish va ularni yangi vazifalarni hal etishda qo'llash;
6. Bo'lg'usi mutaxassisga mustaqil ish yo'li bilan o'z malakasini oshirish qobiliyatini singdirish, uning raqobatbardosh darajada bo'lishini qo'llab-quvvatlagan holda mustaqil o'qishda individual traektoriyasini qurish;
7. Tashkiliy, psixologik-pedagogik, o'quv-uslubiy, axborot, moddiy-texnik va b. ta'minotni o'z ichiga oluvchi harakatdagi mustaqil ish infrastrukturasini yaratish;
8. Yangi o'quv texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Mustaqil ta'limni asosiy belgilari va omillari. Hozirgi kunning tahlillaridan shuni ko'rish mumkinki, kasb-hunar kollejlari tizimida kasbiy malakaning hozirgi zamon talablariga to'la javob beraolmasligi, o'zaro raqobatning yo'qligi, mustaqil ta'lim muammolariga oid tadqiqotlarni rivojlantirish, ularning natijalarini o'quv jarayoniga qo'llash sustligi, bitiruvchilar mutaxassislik muammolarini mustaqil echa olish tajribasiga asoslangan kasbiy malaka va ko'nikmalarga etarli darajada ega emasligi, bu faoliyatlarni shakllantirishga oid mashg'ulotlar asosan tanishtiruv xarakteriga egaligi, ko'pincha kichik mutaxassislar ishlab chiqarishni yaxshi bilmasligi hamda o'z kasbiy faoliyatini takomillashtirish, zamonaviylashtirishga astoydil qiziqishni namoyon qilmasligi kabilar ma'lum bo'ldi. SHunday ekan mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi uchun etuk mutaxassislarni tayyorlashda, o'qitishni ishlab chiqarishdagi mehnat bilan qo'shib olib borish asosida tashkil etish, ishlab chiqarish talabiga mos ravishda mutaxassislarni yangi texnika va texnologiyaning yutuqlari bilan tanishtirish kabilar amalga oshirish lozim. Buning uchun - mustaqil ta'lim jarayonini loyihalash va o'tkazishga etarli e'tibor berish lozim, jumladan:

- o'quvchilar mustaqil ta'limining asosiy turlariga ilmiy jihatdan yondashish;

-o'quvchilar mustaqil ta'limning shakllarini va ularning hajmini o'rganish masalalariga o'qituvchilar tomonidan e'tiborni oshirish;

- o'quvchilar mustaqil ta'limni to'g'ri hamda samarali reja-lashtirishda ma'lum bir tizimni yaratish;

- o'quvchilar mustaqil ta'limni faollashtirish uchun ularni rag'bat-lantirish tizimini ishlab chiqish;

- o'quvchilarni ko'proq muammoli ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish;

- o'quvchilar mustaqil ta'lim shakllari samaradorligini oshiradigan boshqa tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalda joriy qilish.

O'quvchilar mustaqil ta'limni, uning barcha shakllarini tashkil qilish, asosan, o'qishning boshlang'ich bosqichlarida ayrim qiyinchiliklar bilan bog'liq. Ayniqsa, birinchi bosqich o'quvchilari o'qishning yangi shakliga, yangicha talablarga ko'nikishi qiyin kechadi. Ular o'z mustaqil faoliyatlarini o'zlari mustaqil tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma'lumotlarni qaysi manbadan, qanday qilib topish, ularni tahlil qilish, eng asosiylarni ajratib olish va tartibga solish, o'z fikrini aniq va yorqin ifodalash, o'z vaqtini to'g'ri taqsimlash, to'g'ri baholash ular uchun katta muammo bo'ladi.

SHuning uchun ham har bir o'qituvchi avvalo o'quvchida o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, sabr-toqat bilan bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borish lozim bo'ladi.

O'quvchilarning mustaqil ravishda o'zlashtiradigan bilim, malaka va ko'nikmalari bosqichdan bosqichga murakkablashib, kengayib, bu ishda o'quv-chining tashabbuskorligi hamda roli oshib boradi. Ya'ni mustaqil ta'limga ko'nikma boshlagan o'quvchi faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi zarur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o'zlashtirishga o'rganib boradi.

Mustaqil ta'lim jarayonida yuzaga keluvchi muammolarni oldindan ko'ra bilish va hal etish ham muhimdir. Bunda:

1-o'quvchilarning rejalashtirilgan mustaqil ta'lim maqsadlarini o'rganishda erishgan yutuqlarini aniqlash va baholash;

2-mustaqil ta'limning past natijalari sabablarini aniqlash;

3-mustaqil ta'lim jarayonining borishini nazorat etish va kamchi-liklarni bartaraf etish lozim.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.:O'zbekiston. 1997.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan). Barkamol avlod □ O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.:O'zbekiston. 1997.

3. S. Isamitdinov. “Ta`lim va inovatsion usullar”. Uslubiy tavsiyanoma. T.: RTM. 2005.
4. Tolipov O', Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. □T.: «Fan», 2006. Methodology of using autocad software in developing technical creativity of students SD Ahmadovna, RE Tohirovich, RD Dilmurodovna, KD Odilovna Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10 (4), 661-671.
5. Bo'lajak o'qituvchilarning mahoratini rivojlantirishda akmeologik yondashuvlar ST Tavakkalovich, RE Tohirovich, RD Dilmurodovna **BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI** 2 (1), 352-356.
6. Texnologiya fanini o 'qitishda interfaol usullarni qo 'llash metodikasi BSI Qizi, RD Dilmurodovna, RE Tohirovich, P Norjona Ta'lim fidoyilari 4 (1), 191-197.
7. Typical mistakes made by students when making drawings in the engineering graphics discipline RE Tohirovich, RD Dilmuradovna E-Conference Globe, 339-343